Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Sh.M.Mirziyoyev. “Qonun ustunorligi va inson manfaatlarinn ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. “Xalq so‘zi”, 2016-yil 8-dekabr, 243-son.

(2). Ангеловский К. Учителя и инновации. Книга для учителя. Перевод с македонского В.П.Диденко. М., “Просвещение”, 1991, с. 158.

(3). Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. Рига, НПЦ Эксперимент, 1995, 108 с.

(4). Леонтьев А.Н. Наука и человечество. 2 т., М., “Знания”, 1963, 366 с.

(5). U.A.Sapayev. Innovatsion ta’lim muhitini shakllantrishda texnik oily ta’lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalarining integratsiyasi. “Ilm sarchashmalari”, 2022, 9-son, 174–176-betlar.

Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna (Urganch Innovatsion universiteti, “Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi; UrDU mustaqil tadqiqotchisi; e-mail: feruzahonkutlieva@gmail.com)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolaning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslarini o‘rganish, shuningdek, ushbu jarayonga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashdir. Maqola, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun o‘z-o‘zini rivojlantirishning zarurligi va uning o‘quvchi ta’limi sifatini oshirishdagi o‘rni haqida chuqur tahliliy yondashuvni taklif etadi.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish, kompetensiya, kasbiy mahorat, takomillashtirish, ilmiy va pedagogik asoslar, professional.*

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ САМООБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *Целью данной статьи является изучение научно-педагогических основ повышения компетентности саморазвития учителей начальных классов, а также определение факторов, влияющих на этот процесс. В статье предлагается углубленный аналитический подход к вопросу о необходимости саморазвития учителя начальных классов и его роли в повышении качества образования учащихся.*

Ключевые слова: *профессиональное саморазвитие, компетентность, профессиональные навыки, совершенствование, научно-педагогические основы, профессионал.*

SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF SELF-EDUCATIONAL COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation. *The purpose of this article is to study the scientific and pedagogical foundations of increasing the self-development competence of primary school teachers, as well as to determine the factors influencing this process. The article offers an in-depth analytical approach to the issue of the need for self-development of a primary school teacher and his role in improving the quality of student education.*

Keywords: *professional self-development, competence, professional skills, improvement, scientific and pedagogical foundations, professional.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchilardan nafaqat o‘quvchilarga bilim berish qobiliyatini, balki boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy mahoratiga yuqori o‘sish talabini ham qo‘yadi. Bunday o‘sishning asosiy jihatlaridan biri bu o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirishdir. O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirish kasbiy o‘sishning ajralmas qismiga aylanadi va o‘qituvchilarning yangi bilim, texnologiyalarni mustaqil izlash, tushunish, qo‘llash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu kompetensiyani rivojlantirishga nafaqat uslubiy yondashuvlarni, balki boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida uni shakllantirishning amaliy jihatlarini ham ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z ustida ishlash tartibini amalga oshirish zaruratining asosiy sababi, zamonaviy ta’lim tizimi ideal sifatida bo‘lishini ta’minlashdir. Bu esa bizdan o‘qituvchilarni professional darajada tayyorlash zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, ular, keyinchalik, bolalarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga to‘g‘ri yo‘naltira oladilar, chunki ular bolaning ichki, yashirin iste’dodlarini faollashtirishga yordam berishlari mumkin. Har yili o‘quvchilar bilan to‘g‘ri ishlashni aniqlaydigan ko‘proq yangi usullar paydo bo‘lgan-

ligi sababli, o‘qituvchi pedagogikadagi asosiy o‘zgarishlardan xabardor bo‘lishi va rivojlanish qoidalarini bilishi uchun ushbu aniq ma’lumotlarni o‘rganishi kerak. Bugungi kunda o‘qituvchining o‘zini-o‘zi o‘qitishning ahamiyati va zarurligini belgilaydigan standartlar mavjud bo‘lib, o‘qituvchining o‘zini-o‘zi rivojlantirishi uning yuqori kasbiy mahoratini shakllantirishda muhim bosqich ekanligi ayon bo‘ladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirishning mohiyati intellektual mehnat texnikasi va madaniyatini o‘zlashtirish, muammolarni hal qilish, nafaqat shaxsiy o‘zini-o‘zi takomillashtirish, balki kasbiy o‘zini takomillashtirish ustida ham mustaqil ishlashdir. Ma’lumki, o‘quvchilarga beriladigan bilim poydevori boshlang‘ich ta’limda qo‘yiladi. Ushbu bosqichda inson ongi va dunyoqarashini rivojlantirish uchun asos bo‘lgan bilimlar ham beriladi. Shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ma’naviy-axloqiy va kasbiy yetukligi ular tarbiyalayotgan o‘quvchilarning har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Agar shaxsiyatning barcha nozikliklari va xususiyatlari haqida oldindan bilmasak, hech qanday rivojlanish bo‘lmaydi. O‘z-o‘zini bilish shaxsni o‘rganish uchun eng muhim manba hisoblanadi. Faqatgina inson o‘z tajribasi, hayotiy tanlovi va xatti-harakatlari asosida o‘zining eng aniq qiyofasini yaratishga qodir. Har qanday sohada, shu jumladan, professional sohada rivojlanish qiyinchiliklar mavjud. Bu qiyinchiliklardan chiqishda esa professional o‘qituvchi sifatida har bir pedagog o‘ziga xos uslubi bilan ajratib turadigan o‘ziga xos shaxsiy qobiliyatlarga ega. Gap shundaki, odamlar shaxsning o‘zini-o‘zi anglash orqali hayotning har qanday yo‘nalishida yanada mustaqil taraqqiyotga erisha oladi. Xuddi shu narsa kasbiy rivojlanish uchun ham amal qiladi. Agar inson o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini bilsa, u ularga ishonadi va o‘z ishida ulardan oqilona foydalanish yo‘llarini izlab topadi. Shuningdek, shaxsiy imtiyozlarni, nafaqat obro‘-e'tibor, daromad, balki zavq keltiradigan sohada yanada takomillashtirish uchun ham aniqlash muhimdir. Darhaqiqat, insonning o‘zini-o‘zi anglashi va kasbiy mahorati bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki shaxs o‘zining tanlagan yo‘lida faqat ma’lum bir vazifaning muayyan yutuqlari bilan amalga oshirishi haqiqatdir. Bu esa insonning “Qalb kasbi” deya atalmish o‘z-o‘zini rivojlantirishning tub asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishsiz shaxsiy o‘sishga erishish juda qiyin bo‘ladi. Shuning uchun dastlabki yillarda bo‘lajak o‘qituvchi ozini ishlashga ko‘niktirishi juda muhimdir. Pedagogik tajriba 1–3 yilda hosil bo‘lsa, pedagogik mahorat esa 3–7 yilda, tajriba maktabi esa 7–10 yilda hosil bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi vaqtda o‘quv, malaka oshirish kurslari o‘qituvchini o‘z-o‘zini rivojlantirishning muhim va asosiy bosqichi va o‘ziga xos usuli hisoblanadi. Bunday kurslar odatda ta’lim muassasasi rahbari tomonidan o‘tkaziladi. Shuningdek, har bir o‘qituvchi o‘z-o‘zini rivojlantirish dasturini yaratishi kerakligini ko‘rsatadigan standartlar mavjud. Shuningdek, o‘qituvchi o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida foydalanadigan adabiyotlarni ko‘rsatib, o‘z faoliyatining xulosalarini belgilaydi. Ko‘rinib turibdiki, zamonaviy o‘qituvchining asosiy vazifasi kelajakda malaka va umumiy kasbiy mahorat darajasini oshirish uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni chuqur o‘rganishdir. O‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishi davlat ta’lim standartini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik kompetensiyalarni doimiy ravishda yangilashga, ta’lim faoliyatining kompetension shaklida universal ko‘nikmalarni to‘liq o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, talabalarning o‘quv jarayonini aniq va malakali ravishda amalga oshirishga qaratilgan [1].

Yosh o‘qituvchining o‘quv jarayonini malakali va samarali tashkil etishga imkon beruvchi psixologik usullardan foydalanishni o‘rganishi, bolalarni kamsitish emas, balki ularni o‘z maqsadlari sari qat’iy yo‘naltirishi muhim ahamiyatga ega. Yuqori malakali o‘qituvchilar bilan samarali muloqotda bo‘lgan yosh o‘qituvchi asta-sekin hurmatli, zamonaviy, faxriy va malakali o‘qituvchiga aylanadi.

T.P.Terentyeva o‘zining ilmiy ishida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasiga kiruvchi kompetensiyani ikki guruhga ajratdi: “individual” va “umumiy”. Individual (shaxsiy) kompetensiya bu o‘qitilayotgan fan bo‘yicha zarur bo‘lgan maxsus kompetensiya, aniq mutaxassislarga va ularning maxsus bilimlari va tajribasiga qo‘yiladigan talablar tizimi. Umumiy kompetensiya bu o‘quv jarayonining har bir ishtirokchisi o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan refleksli, kommunikativ, umumiy pedagogik, texnologik kompetensiyadir [2]. O‘z-o‘zini rivojlantirish yosh o‘qituvchining muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatiga to‘g‘ri yo‘l va kasbiy o‘zini-o‘zi takomillashtirish shakllaridan biridir. O‘z navbatida, o‘qituvchining kasbiy o‘zini-o‘zi takomillashtirish bu tashqi ijtimoiy talablarga, kasbiy faoliyat shartlariga va shaxsiy rivojlanish dasturiga muvofiq, uning kasbiy malakasini oshirish va kasbiy muhim fazilatlarni rivojlantirishning ongli, maqsadli jarayoni.

J.X.Salxanova kompetensiyani natijaga yo‘naltirilgan ta’lim tizimida shaxs bilimining mezoni deb hisoblaydi. Muallif o‘z ishida “kasbiy kompetensiya” deganda o‘z kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari, shaxsiy qobiliyatlari darajasi, kasbiy mahorat darajasini doimiy ravishda oshirish istagi, o‘z ishiga ijodiy va mas’uliyatli yondashish bilan tavsiflangan guruh sifatida ta’riflaydi [3].

O‘z-o‘zini rivojlantirish yosh o‘qituvchining muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatining ishonchli usuli va kasbiy o‘zini takomillashtirish shakllaridan biridir. O‘z navbatida, o‘qituvchining kasbiy o‘zini-o‘zi takomillashtirish bu tashqi ijtimoiy talablar, kasbiy faoliyat shartlari va shaxsni rivojlantirish dasturiga muvofiq, uning kasbiy malakasini oshirish va kasbiy muhim fazilatlarni rivojlantirishning ongli, maqsadli jarayoni.

Sorokina T.M. bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun kasbiy kompetensiya tuzilmasi modernizatsiyasini ishlab chiqqan. Uning tadqiqotida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tushunchasi uning kasbiy tayyorgarligining dinamik, protsessual tomoni, kasbiy o‘sish xususiyatlari, kasbiy o‘zgarishlar, motivatsion va faoliyatga asoslangan xarakteristikasi sifatida talqin etiladi. U kasbiy kompetensiyani bo‘lajak o‘qituvchining bosqichma-bosqich kasbiylashuv hodisasi deb biladi. Shu bilan birga, “kompetentlik” tushunchasi, uning nuqtayi nazari bo‘yicha, yetuk o‘qituvchining kasbiy faoliyatini ko‘proq belgilaydi [4].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini samarali rivojlantirishning eng muhim psixologik sharti bu, asosan, bo‘lajak o‘qituvchining psixologik tayyorgarligini professionallashtirish tufayli o‘quv va kasbiy xususiyatga ega bo‘lgan o‘quv faoliyatining o‘zgarishidir [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, kompleks yondashuvni talab qiladi. Muhim jihat bu o‘qituvchilarning ichki motivatsiyasi va butun kasbiy hayoti davomida o‘rganishga tayyorligi. Shu nuqtayi nazardan, nafaqat o‘qituvchilarning tashabbuslari, balki ta’lim tashkilotlari va davlat tuzilmalari tomonidan o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun sharoit yaratish ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri bu ta’lim muassasalari tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘lib, u nafaqat o‘quv materiallari bilan ta’minlash, balki o‘qituvchilar tajriba almashishi va maslahatlar olishi mumkin bo‘lgan professional jamoalarni tashkil etishni ham o‘z ichiga olishi kerak. Bundan tashqari, o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini tashkil qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhimligini ta’kidlash kerak. Ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar, jumladan, onlayn kurslar, bilim almashish platformalari va professional vositalardan foydalanish imkoniyatini ochadi.

O‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi bu o‘qituvchiga yangi bilimlarga bo‘lgan ehtiyojni mustaqil ravishda aniqlash, kasbiy faoliyati sifatini yaxshilash uchun ma’lumotlarni izlash, o‘zlashtirish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalar to‘plamidir. Bu nafaqat o‘z-o‘zini o‘rganish qobiliyati, balki bilimlarni tizimlashtirish, o‘z ta’lim loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, ta’lim amaliyotida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatidir.

Tahlil va natijalar. O‘qituvchilar duch keladigan asosiy muammolar o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorgarlikning yetarli emasligi, vaqt yetishmasligi, shuningdek, mavjud ta’lim dasturlari doirasida kasbiy o‘sishning cheklanganligi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, ko‘plab o‘qituvchilar ta’lim tashkilotlari tomonidan tizimli qo‘llab-quvvatlashni talab qiladigan eng yangi pedagogik texnologiyalar va usullarni mustaqil ravishda o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z-o‘zini rivojlantirish zarurligini anglash, yangi bilim, ko‘nikma va usullarni mustaqil ravishda o‘zlashtira olish qobiliyati kabi keng ko‘lamli tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonning asosiy omillari motivatsiya, o‘z faoliyatini mustaqil tashkil eta olish, shuningdek, zamonaviy ta’lim resurslaridan foydalanishdir.

Xulosa. O‘z-o‘zini rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qiladi. O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish tizimli yondashuvni, shu jumladan, o‘qituvchilarning shaxsiy motivatsiyasini va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni talab qiladi. Ta’lim muassasalari va ta’limni boshqarish organlari bu jarayonni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab, o‘quv dasturlarini amalga oshirish, tajriba almashish uchun resurslar, vaqt va imkoniyatlar taqdim etishi zarur. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirish ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy ta’lim muammolari sharoitida samarali ishlashga qodir o‘qituvchilarni tayyorlash yo‘lidagi muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007

[2]. Терентьева Т.П. Формирование профессионально-педагогической компетентности у будущих учителей изобразительного искусства на основе полихудожественного подхода. Дис.... канд. пед. наук, Спец. 13.00.08. «Теория и методика профессионального образования». Т.П.Терентьева, Чебоксары, 2014, 151 с.

[3]. Салханова Ж.Х. Компетентность и компетенции. Моногр. Ж.Х.Салханова, Алматы, Казах. нац. ун-т им. Аль-Фараби, 2013, 178 с.

[4]. Лидия Ярмолович, Элеонора Урунбасарова (Алматы, Казахстан). Особенности развития профессиональной компетентности у будущих учителей начальных классов. http://oldconf.neasmo.org.ua/node/1801

[5]. Т.М.Сорокина. "Развитие профессиональной компетенции будущего учителя начальной школы в условиях многопредметной вузовской кафедры", 2010, 128 с.

Rahimova Indira Qudrat qizi (Urganch davlat universiteti Ta'lim va ta'rbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi tayanch doktorantura 1-bosqich talabasi; irakhimova123@gmail.com)

ILMIY TADQIQOTLARDA KUZATILADIGAN PLAGIAT PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Plagiat akademik yozuvda, ayniqsa, yangi tadqiqotchilar uchun jiddiy muammo hisoblanadi, chunki ular bu axloqiy qoidabuzarlikni bilmagan holda sodir etishlari mumkin. Ushbu tadqiqot plagiat va uning keng tarqalgan turlarini chuqur o'rganadi hamda undan qochish uchun amaliy usullar va maslahatlar taqdim etadi. Plagiatga ta'rif berish, to'g'ri iqtibos keltirish bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatish va axloqiy yozish amaliyotlarining ahamiyatini ta'kidlash orqali, ushbu tadqiqot yangi tadqiqotchilarga akademik halollikni saqlash va o'z sohalarida bilimlarni rivojlantirishga hissa qo'shish uchun zarur vositalarni taqdim etishni maqsad qiladi. Tadqiqotning o'ziga xos hissasi shundaki, u yangi tadqiqotchilarga plagiatning oldini olish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *plagiat, manbaa, mozaik plagiat, parafraza, antiplagiat dasturlar, iqtibos.*

Рахимова Индира Кудратовна (Ургенчский государственный университет, специальность теории и методики обучения и воспитания, базовая докторантура, студентка 1 курса; irakhimova123@gmail.com)

ПЛАГИАТ, НАБЛЮДАЕМЫЙ В НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ, КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. *Плагиат является существенной проблемой в академической письменности, особенно для начинающих исследователей, поскольку они могут совершить это нравственное нарушение, не зная об этом. Данное исследование глубоко изучает плагиат и его распространенные виды, а также предоставляет практические методы и советы по его избеганию. Подчеркивая важность определения плагиата, инструктажа по правильному цитированию и практике нравственного письма, данное исследование направлено на предоставление новым исследователям необходимых инструментов для поддержания академической честности и содействия развитию знаний в своей области. Отличный вклад исследования заключается в том, что оно направлено на предоставление новых исследователям конкретных рекомендаций по профилактике плагиата.*

Ключевые слова: *плагиат, источник, мозаичный плагиат, парафраза, антиплагиатные программы, цитата.*

Rahimova Indira Kudrat kizi (Urgench State University Theory and Methodology of training and education Basic doctoral 1st-year student; irakhimova123@gmail.com)

PLAGIARISM IN SCIENTIFIC RESEARCH AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation. *Plagiarism is a serious problem in academic writing, especially for new researchers, as they may commit this ethical violation without knowing it. This study deeply examines plagiarism and its common types, and provides practical methods and advice for avoiding it. By emphasizing the importance of ethical writing practices, providing guidance on how to describe plagiarism, and providing proper citation, this study aims to provide new researchers with the necessary tools to maintain academic integrity and contribute to the development of knowledge in their field. The distinctive contribution of the research is that it aims to provide new researchers with specific guidelines for the prevention of plagiarism.*

Keywords: *plagiarism, source, mosaic plagiarism, paraphrase, antiplagiarism programs, quotation.*

Kirish. Dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonda ilm-fanga e'tibor tobora ortib bormoqda. Ilm-fan rivoji uchun ko'plab dunyo universitetlari olimlarni qo'llab-quvvatlash yo'lida turli xil grantlar va stajirovkalarni taqdim qilishmoqda. Shu o'rinda olimlar muyyan bir muammo ustida ish olib borib, unga kerakli yechimlar topishmoqda va o'z yutuqlari bilan ilmiy yozuv orqali ham bo'lishishmoqda. Afsuski, bunday maqolalardan fikr keltirishda ko'plab yosh olimlar ko'chirmachilikka yo'l qoyishmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu, albatta, maqoladan iqtibos olayotgan olimning plagiat, ya'ni ko'chirmachilik qonunlarini bilmasligidan dalolatdir.